



Xonqa tumani Axborot-kutubxona markazi

Axborot- bibliografiya xizmati

O`lkam - faxrim mening !



O'lkashunoslikka oid adabiyotlar-kitob ko'rgazmasiga bag'ishlangan

BIBLOGRAFIK SHARX

2025-yil

1.Solayev, Ne'mat.

“Hojixon”, “Xorazm” nashriyoti. 1994 yil.

Ikki siymo-O'zbekiston xalq artisti Hojixon Boltayev, vohaning sevimli xonandasi Nurmuhammad Boltayevlar xolis e'tiqodli xizmati bilan el hurmatini qozongan, san'at bilan ziynatlangan umrini boqiylikka daxldor qilgan insonlardir. Xorazmning faxri bo'lib qolgan bu insonlar haqida “Besh kunlik yo'l” deb nomlangan kitob yozildi. Qo'lingizdagi risola ana shu muxtasar kitobdagi ayrim lavhalardan tuzilgan.

Xorazm san'atiga, uning muqaddas tarixiga ixlosli do'stlarning ko'magi va madadi bilan “Hojixon” rangli fil'mi yaratildi, kitoblar yozilgan.

2.Hayitova, Olmaxon.

Xorazm qo'shiqchilik san'ati durdonalari: O'quv qo'llanma/ O. Hayitova; O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari Vazirligi, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat institute, -T.: “Noshir”, 2009.- 188 b.

Respublikamizning taniqli xushovoz xonandasi, o'zbek qo'shiqchilik san'ati rivojiga yarim asrdan buyon salmoqli ulush qo'shib kelgan O'zbekiston xalq artisti Olmaxon Hayitovaning ushbu o'quv qo'llanmasi san'atimizning ko'p asrlik tarixida munosib o'rin egallab kelayotgan umrboqiy an'alariga- ustoz va shogirdlik hamda Xorazm yakka qo'shiq ijrochiligiga bag'ishlanganligi bilan diqqatga sazovordir. Unda Xorazm maqomlari-yu ko'plab professional xalq ashula san'ati namunalari – dilrabo qo'shiq va taronalar, qadrli xotiralar – bebaho quvvai hofizalar asosida og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tib, bizning kunlarimizgacha etib kelgan qo'shiqchilik san'ati haqida ko'plab misollar keltirilgan. O'quv qo'llanmada muborak “Ustoz-shogirdlik” an'anasi sharofati bilan Xorazm qo'shiqchilik san'atida erishilgan kamolot bosqichlari ehtiros bilan qalamga olingan.

3.Eshjonova, Sh.

Xorazm farzandlari [Matn] / Sh. Eshjonova, S. Hakimova. – Toshkent: Shafoat nur fayz, 2024. -656 b.

Insoniyat madaniy taraqqiyotni bosh maqsadi qilib yashashni ustivor vazifa qilgan so'nggi yuz yillikda ham qadim vohadan taniqli shaxslar etishib chiqdilar. Turli tuzumlar va siyosatlar davrida ular siyosiy qarashlarini ko'ngillari tubiga cho'ktirib, el-ulus obod bo'lmog'I, odamlar farovon yashamog'I yo'lida fidoyilik ko'rsatdilar. Kimningdir taqdiriga butun viloyat, yana kimlar qismatiga tuman, ko'plarning zimmasiga elning kichik bo'lagi hisoblanmish qishloqlar hamda u yerda faoliyat yuritgan xo'jaliklarga rahbar bo'lish tushdi. Og'ir zamonlarda bu insonlar o'z umrini, bor bilimi va sog'ligini o'ziga topshirilgan vazifani vijdonan, sidqidildan bajarishga intilishdi. Bu borada ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishdi. Bugun xalqimiz elga bosh bo'lgan bu insonlar xotirasini avaylab-asrashmoqda. Bu insonlar haqida kitoblar yozilayotir, xotiralari abadiylashtirilmoqda. Vohaning kasbiga fidoyi jurnalistlari tomonidan tartib qilingan ushbu “ Xorazm farzandlari” to'plami ana shu ezgu ishlarimizning uzviy davomi desak bo'ladi.

4.Hazrati Pahlavon ota hikoyatlari

[Matn]. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi M. Hasaniy. – Toshkent: “ O'zbekiston” NMIU , 2017. -64 b.

“Pahlavon Mahmud” (“Hazrati Pahlavon ota hikoyatlari”) nomli qissada buyik vatandoshimiz, ajoyib ruboiylar muallifi, shoir va pahlavon, elkasi yer ko'rmagan xorazmlik kurashchi, o'zbek xalqining farzandi Pahlavon Mahmud haqidagi hikoyatlar o'rin olgan. Noma'lum muallif Mahmud Pahlavon haqidagi bu hikoyatlarni qadimgi kitoblardan o'qigan va odamlar og'zidan eshitib yozib olib, pahlavonning muxlislari tomonidan qilingan iltimosni amalga oshirgan. Asar keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

5.Mahmudov, Jasurbek.

Pahlavon, Mahmud Puryorvaliy (Matn) / J. Mahmudov. – Toshkent: - “O’zbekiston” NMIU, 2018. - 272 b.

Ushbu kitobni tayyorlashda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan “Nafohat ul-uns”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Majolis ul – ushshoq”, “Latoyif uttavoyif” singari tazkiralar qo’lyozmasi va ularning Eron, Turkiya va Hindistondagi nashri; “Riyoziy ul-jabr” tazkirasining ustoz Ahmadjon Yunusov shaxsiy kutubxonasidagi nusxasi, O’zR FASHI (Sharq qo’lyozmalar markazi) fondi, O’rta Osiyoni o’rganish Fransiya instituti kutubxonasi va O’zR FA fundamental kutubxonalarida saqlanayotgan “Safarnomai Xorazm asari, Eron, Turkiya va Hindistonda chop etilgan lug’at va qomuslar, shuningdek, O’zR FASHI fondi hamda uning Hamid Sulaymon bo’limida “Ruboiyoti Pahlavon Mahmud” nomi bilan saqlanayotgan 11 ta qo’lyozma asosiy manba vazifasini o’tagan.